

MASOFADAN ZONDLASH MA'LUMOTLARI ASOSIDA YAYLOV YERLARINI MANITORING QILISH AVZALLIKLARI

Islomov Utkir Pirmetovich

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”

Milliy tadqiqot universiteti PhD., dosenti.

Bazarbayeva Aziza Sipatdin qizi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”

Milliy tadqiqot universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18709261>

Annotatsiya. Tabiiy resurslar ichida yer o‘zining huquqiy maqomiga ega. Ohirgi yillarda aholining ko‘payishi mamlakatimizda oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji yildan yilga ortmoqda.

Maqolada respublikamiz qishloq xo‘jaligida yaylov yerlar va degradatsiyaga uchragan yerlarni masofadan zontlash ma‘lumotlari asosida manitoring ishlari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. Shu bois sug‘oriladigan yerlarni ekologik ko‘rsatgichlarini aniqlashda zamonaviy GAT va masofadan zonlash ma‘lumotlari asosida yaylov yerlari va degratatsiyaga uchragan yerlarni monitoring ishlari keltirilgan. Bugungi kunda zamonaviy electron dasturlar orqali masofadan zonlash ma‘lumotlari orqali ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Kalit so‘zlar: Yer, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi yerlari monitoring, yaylov va yaylovlardan foydalanish, zamonaviy electron dasturlar, degradatsiya va monitoring ishlari.


Hozirgi davrda dunyoda iqlim oz‘garishi atrof-muhitini muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalari tobora dolzarb bo‘lib kelmoqda, mamlakatimiz oziq-ovqat-xavfsizligini ta‘minlash, jumladan aholining oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan real ehtiyojlarini qondirish yuzasidan barqaror qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sur‘atlariga erishish maqsadida degradatsiyaga uchragan yer maydonlarini foydalanishga kiritish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi yer fondining toifalari bo‘yicha ma‘lumot

1-jadval

Yer toifalari	2024 yil 1 yanvar holatiga (ming ga)	%
Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar;	26132,2	58,21
Aholi punktlarining yerlari;	226,7	0,51
Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa Maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar,	786,9	1,75
Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar,	3223,3	7,18
Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;	15,0	0,03
O‘rmon fondi yerlari;	12092,5	26,94
Suv fondi yerlari;	827,3	1,84
Zaxira yerlari	1588,5	3,54
Jami yerlar	44892,4	100

Bugungi kunda masofadan zontlash ma'lumotlari asosida yaylov yerlarini monitoring qilish usulini takkomillashtirish, yaylov yerlaridan ilmiy asoslangan va ekologik barqaror tarzda foydalanish bugungi kunda qishloq xo'jaligining chorcachilik tarmog'ida oziqa bazasini saqlab qolish va samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biridir. Amaldagi qonunchilikda yaylov yerlari qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasiga kiritilgan bo'lib, ular yuridik jihatdan alohida tartibda yuritiladi. Biroq, amaliyotda ularning turli ekologik hududiy sharoitlarga ega bo'lishi hisobga olinmasdan, yagona yaylov sifatida baholanishi ko'plab muammolarga sabab bo'lmoqda.



1-rasm. Ko'p yillik iqlim o'zgarishi o'rtachasi (2017-2025)

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-mayda qabul qilingan "Yaylovlar to'g'risida"gi 538-Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 277-son qarori, 2024-yil 13-fevraldagi "Qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo'llab quvvatlashning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida" 71-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi "Ma'muriy hududlar birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi 299-son qarori, 2024-yil 12-martdagi "Yaylovlar va ulardagi yer osti suvlarini muhofaza qilish hamda yaylov degradatsiyasiga qarshi kurashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 126-son qarori va 2022-yil 14-yanvardagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 22-sonli qarorlari hamda ushbu yo'nalishga oid boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Hozirgi iqlim o'zgarish sharoitida butun dunyoda qishloq xo'jaligi yer maydonlarining, shuningdek tabiiy yaylov yerlarining qisqarib ketishi, ularning holati tobora yomonlashuvi dolzarb muammoga aylangan. Ma'lumotlarga ko'ra yer sharining 71 foizini dengiz va ocean suvlari, qolgan 29 foizini quruqliklar tashkil etadi, atiga 11 foiz ulushida insonlar uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladi. Birlashgan millatlar tashkilotining atrof-muhit dasturi tomonidan ishlab chiqilgan "Global ekologik taraqqiyot" hisobotida bugungi kunga kelib, sayyoramizning qariyb 2 milliard gektarga 14.9% yaqin maydoni turli darajada degradatsiyaga uchraganligi oqibatida foydalanishdan chiqib ketganligi, undan tashqari yiliga 6 mln gektar yer cho'llanishga uchrayotganligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Shu boisdan, tadqiqotda yaylov yerlari faqatgina yagona toifa sifatida emas, balki ularning tabiiy-geografik va ekologik xususiyatlarini inobatga olgan holda mintaqalashtirish va ularning maydonini aniqlash bo'yicha takliflar qilingan. Respublikamizda yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, xususan degradatsiyaga uchragan yaylov yerlar monitoringini yuritishga oid keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, O'zbekiston hozirgi vaqtda "yerning degradatsiya uchrashi, chang-to'zonlar, suvning yetishmasligi, ekologik ifloslanish" kabi og'ir muammolarga duch kelmoqda. Ushbu xavf-xatarlar ekologik barqarorlikni ta'minlash va degradatsiyani ortga qaytarish uchun milliy va mintaqaviy strategiyalarni ilgari surish lozim.

Jumladan, UNCCD bilan hamkorlikda noyob hudud Orol mintaqasi uchun "Yashil Makon" dasturini yaratish, "Yashil kamar" mintaqaviy daraxt ekish kampaniyasini yo'lga qo'yish, shuningdek suv tejovchi va atrof-muhitga mos innovatsion agro-texnologiyalarni joriy etish bo'yicha aniq choralarni belgilab berdi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan yer resurslaridan foydalanishni bugungi kun talablariga mos takomillashtirish, degradatsiyaga uchragan yaylov yerlari ma'lumotlari asosida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tahlil qilish, respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Har doim muntazam ravishda, shu jumladan yaylov yerlari monitoringini olib borish, degradatsiyaga qarshi kurashish hamda mazkur yerlardan oqilona va samarali foydalanish dolzarb hisoblanadi. Jahonning rivojlangan davlatlari va yetakchi xalqaro qishloq xo'jaligi ilmiy markazlarida dunyo qishloq xo'jaligidagi tabiiy o'zgarishlarni kuzatish, olingan natijalarini tahlil qilish va salbiy oqibatlariga qarshi kurashish yo'nalishlarida turli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Hulosa o'rinda aytish mumkinki hozirgi kunda masofadan zontlash ma'lumotlari asosida yaylov yerlarini manitoring qilish usulini takkomillashtirish bo'yicha respublikamizda olimlar tamonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilyabdi. Qishloq xo'jaligi vazirligi va O'zbekkosmik agentliklari tamonidan zamonaviy electron dasturlar orqali masofadan zonlash ma'lumotlari asosida qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish ishlari olib borilmoqda. Shu orqali oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik barqarorlik va mamlakatimizning iqtisodiyotiga kelajkdagi jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalar tahlil qilinib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-mayda qabul qilingan "Yaylovlar to'g'risida"gi 538-Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 277-son qarori.
3. 2024-yil 13-fevraldagi "Qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo'llab quvvatlashning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida" 71-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-dekabrda PF-219-son Farmoni "Yer resurslarini boshqarish va yaylov yerlaridan foydalanish tizimini raqamlashtirish bo'yicha davlat dasturi"
5. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. 1998 yil. Toshkent.
6. A.R.Babajonov Yer resurslaridan foydalanishni boshqarish.

7. O‘zbekkosmis agentligi ma’lumoti
8. Миллий ҳисобот 2019 йил
9. Ў.П.Исломов.,А.Н.Иномов.,Ж.О.Лапасов., Замонавий: JPS приёмниклар 2016 йил
10. Babajanov A. et al. Organizational and economic mechanisms of regulating land relations in agriculture //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 65. – С. 03005.
11. Ер участкаларини рўйхатга олишда геодезик ишлар. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9696-2019-4-6>
12. Abdullaev T. et al. Higher Geodesy//Textbook. – 2017.
13. Бабажанов а. Р. И др. Повышение экологической безопасности сельскохозяйственных земель на основе развития лесного хозяйства республики узбекистан //ббк 41/42 о14. – 2023. – с. 19.
14. Allanazarov O., Khikmatullaev S., Islomov U. Maintaining the state cadaster of the territories on the base of remote sensing materials //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 371. – С. 01014.
15. Babajanov A. et al. Advantages of formation non-agricultural land allocation projects based on GIS technologies //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 227. – С. 05001.
16. Исломов У. П. и др. Мониторинг сельскохозяйственных земель Республики Узбекистан и их мелиоративное состояние //ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. – 2022. – С. 27-41.
17. Khamidov M. et al. Application of geoinformation technologies for sustainable use of water resources //European Journal of Molecular and Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 1639-1648.
18. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17483508>
19. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17483402>
20. Islomov O‘.P., Annaqulova M.E., Sun’iy yo‘ldosh geodezik tarmoqlarini yaratish usullari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17722354>
21. <https://scholar.google.com/scholar?cluster=6736372564035684980&hl=en&inst=8697446408056752236&oi=scholar>